




TASDIQLAYMAN
“O‘zMMI” DM Buxoro
filiali rahbari v.b
E.U.Xudayberdiyev
26-noyabr 2025-yil



TASDIQLAYMAN
“UzTest” DM Buxoro
filiali rahbari
F.H.Soliyev
26-noyabr 2025-yil

TASDIQLAYMAN
O‘zTJTS agentligining Texnik
jihattan tartibga solish
sohasida nazorat inspeksiyasi
Buxoro viloyati bo‘lim boshlig‘
F.Sh.Jo‘rayev

O‘zbekiston TJTSAning Texnik jihattan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi Buxoro viloyati bo‘limi, “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM Buxoro filiali, “UzTest” DM Buxoro filiali xodimlari o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurash”, “Manfaatlar to‘qnashuvi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-yilligi 8-dekabr “Konstitutsiya kuni” hamda “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusida o‘tkazilgan

YIG‘ILISH BAYONI № 20

2025-yil 26-noyabr
Raislik qiluvchi:

Taklif etilganlar

Ishtirok etdilar:

Buxoro shahri soat 11:00

R.G‘.Rasulov- “O‘zbekiston texnik jihattan tartibga solish agentligi direktorining matbuot kotibi

Q.R.Raximov- “O‘zbekiston texnik jihattan tartibga solish agentligi Korrupsiyaga qarsh kurashish Kompleans nazorati bo‘limi boshlig‘i

Sh.T.Alimov- “Uz Test” DM Kompleans nazorati bo‘limi boshlig‘i

O‘zbekiston TJTSAning Texnik jihattan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi Buxoro viloyat bo‘limi, “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM Buxoro filiali, “UzTest” DM Buxoro filiali xodimlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-yilligi 8-dekabr “Konstitutsiya kuni” to‘g‘risida.**
- 2. “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” shiori ostida Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlari to‘g‘risida.**
- 3. “Manfaatlar to‘qnashuvi” yuzaga kelishi, o‘z vaqtid aniqlash, tartibga solish, bartaraf etish to‘g‘risida.**

(R.G‘.Rasulov, Q.R.Raximov, Sh.T.Alimov, E.U.Xudayberdiyev, F.H.Soliyev, R.G‘.Rasulov)

Seminarni “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorining matbuot kotibi Rasulov Raufjon G‘afurovich kirish so‘zi bilan boshlab barcha yig‘ilish ishtirokchilarini yaqinlashib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-yilligi 8-dekabr “Konstitutsiya kuni” bilan tabriklab, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyati, uni o‘rganishning zarurati, unga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida birma bir to‘xtalib, Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yilganligi hamda inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgilanganligini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Bugungi “Korrupsiyaga taraqqiyot kushandasi” shiori ostida Korrupsiyaga qarshi kurashish, “Manfaatlar to‘qnashuvi” to‘g‘risida o‘tkaziladigan mavzu bilan tanishtirib, “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida, uning tizimidagi filiallarda muammolar, kamchiliklar, qonun buzilish holatlarini oldini olish, bartaraf etish maqsadida bugungi seminarni tashkil qilinganligini aytib, barchani yana bir bor ogohlikka chaqirib, eslash, eslatishdan iborat ekanligini, korrupsiyaga qarsh kurashish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o‘z vaqtida javob berish, ularni norozichiligiga yo‘l qo‘ymaslik, to‘g‘ri, halol ishlash hammamizning burchimiz ekanligi, bu haqida davlat rahbarining yig‘ilishida Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi bir qator vazifalar belgilab berilganligi ta’kidlab o‘tdi.

Tadbirga taklif etilganlar bilan tanishtirib so‘z navbatini “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Korrupsiyaga qarsh kurashish Kompleans nazorati bo‘limi boshlig‘i Qosimjon Rasulovich Raximovga berdi.

Qosimjon Rasulovich Raximov o‘z so‘zida hozirda dolzarb bo‘lgan muammolardan biri korrupsiyaga qarsh kurashish hamma soha bo‘yicha ish olib borilayotganligi, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 03-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining normalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori mazmun mohiyati, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash ahvoli, hallolik tushunchasining mohiyati va ahamiyati, korrupsiyaning oldini olishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida gapirib o‘tdi.

So‘z navbati - “UzTest” DM Kompleans nazorati bo‘limi boshlig‘i Sh.T.Alimovga berildi.

Sh.T.Alimov Korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha 2017-yildan buyon hozirgi kungacha 5 ta Qonun, 10 dan ortiq Qarorlar qabul qilinganligi, Korrupsiya qarshi kurashish hamma xodimlar shug‘ullanishi lozomligini, bunga chek qo‘yilmasa jamiyatda rivojlanish bo‘lmasligi, har bir xodimning huquqiy savodxonligini oshirish, bu bo‘yicha Bosh prokuratura bir qator topshiriqlar belgilab berganligini aytib o‘tdi.

Korrupsiya” termini lotincha “**corruptio**” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uning etimologik ma‘nosi “**buzish, sotib olish**” dir, korrupsiya 3 ta maishiy korrupsiya, biznesdagi korrupsiya va hokimiyatdagi korrupsiyalar.

Maishiy korrupsiyaga xizmat ko‘rsatish tashkilotlari kiradi. “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida xizmat ko‘rsatish tashkilotiga kiradi.

Manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsning shaxsiy manfaatlari manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorligi bilan fuqarolarni, tashkilotning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshichilik yuzaga kelayotgan vaziyat.

Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklarasiya to'ldirilishida har bir holat yoritilishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lgan holat aniqlangan taqdirda darhol rahbarni xabardor qilish zarur.

Davlat xaridlarida ham shunday holatlar uchrayotganligini misollar bilan aytib o'tdi.

Sun'iy intellekt orqali bular aniqlanishi, qonun doirasida tegishli chora ko'rilishini, bu barcha uchun ta'luqli ekanligini aytib, hammani ogohlikka chaqirib so'zini yakunladi.

Shundan so'ng "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Korrupsiyaga qarsh kurashish Kompleans nazorati bo'limi boshlig'i Qosimjon Rasulovich Raximov qayta so'zga chiqib xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi talablari bo'yicha davlat xizmatchisi va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan mansabdor shaxs hisoblanishlari, xodimlarning mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida muomala madaniyatiga rioya etishi, xushmuomala, iltifotli, odobli, e'tiborli bo'lishi, fuqarolarga nisbatan qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasliklari, xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari, hozirda butun dunyo iqtisodiyotiga korrupsiya o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligi, bu illat bor joyda rivojlanish taraqqiyot bo'lmasligi, korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri ekanligi, ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur etkazishi, inson huquq va erkinliklarini poymol bo'lishiga olib kelishini, shuningdek, korrupsiyaga bog'liq har qanday jinoyatga jazo albatta muqarrar ekanligini alohida ta'kidlab ogoh bo'lishlarini qayta aytib o'tdilar.

Yig'ilish yakunida har bir xodim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qattiq ogoxlantirildi.

Bayonni yozdi:



J.Uralov